XALQ DEPUTATLARI TOSHKENT VILOYATI KENGASHINING
Q A R O R I

2022 - yil 18 - aprel VI-51-70-10-0-K/22 Toshkent viloyati hokimiligi

Toshkent viloyati “ZANGIOTA OBODON” ma’suliyati cheklangan jamiyatining qattiq maishiy chiqindilarni to‘plash va olib chiqib ketish xizmatlari uchun yangi tariflarni belgilash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-sentabrdagi “Maishiy va qurilish chiqindilari bilan bog‘liq ishlarni boshqarish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-4845-sonli Qarori hamda Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 6-fevraldagi “Chiqindilar bilan bog‘liq ishlarni amalga oshirish sohasidagi normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida”gi 95-son Qaroriga asosan Toshkent viloyatining Toshkent tumani hamda Chirchiq shaharlarida qattiq maishiy chiqindilarni to‘plash va olib chiqib ketish xizmatlari uchun tariflarni tartibga solish maqsadida Xalq deputatlari Toshkent viloyati Kengashi,

Q A R O R Q I L A D I :

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-sentabrdagi “Maishiy va qurilish chiqindilari bilan bog‘liq ishlarni boshqarish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-4845-sonli Qarori hamda Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 6-fevraldagi “Chiqindilar bilan bog‘liq ishlarni amalga oshirish sohasidagi normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida”gi 95-son Qarori ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. “ZANGIOTA OBODON” ma’suliyati cheklangan jamiyatining (keyingi

o‘rinda jamiyat) tomonidan Toshkent viloyatining Toshkent tumani va Chirchiq shahri uchun ishlab chiqilgan qattiq maishiy chiqindilarni to‘plash va olib chiqib ketish xizmatlari tariflari ilovaga muvofiq ma’qullansin.

Bunda, O‘zbekiston Respublikasi monopoliyaga qarshi kurashish qo‘mitasining Toshkent viloyati hududiy boshqarmasi (26.08.2021y. № T-11-01/03-4979-son) hamda Toshkent viloyati hokimligi moliya bosh boshqarmasining (31.08.2021y. №02-20/27-05—38/3299-son) xulosalari inobatga olinganligi ko‘rsatib o‘tilsin.

3. Viloyat axborot va ommaviy kommunikatsiyalar boshqarmasi boshlig‘i (Eralieva), “Toshkent haqiqati”, “Tashkentskaya pravda”, “Chirchiq tongi” va “Chirchik” gazetalariga qattiq maishiy chiqindilarni to‘plash va olib chiqish xizmatlarining yangi tariflari qarori rasman e’lon qilingan kundan boshlab qo‘llanilishi yuzasidan ommaviy axborot vositalarida keng yoritib borilishi vazifasi yuklansin.

4. Viloyat hokimligi shaharlar infratuzilmasini rivojlantirish, obodonlashtirish va kommunal xo‘jalik masalalari bo‘yicha kotibiyati mudiri J.Xakimov **ikki kun muddatda** ushbu qaror o‘rnatilgan tartibda tasdiqlangandan so‘ng, viloyat hokimining qarori loyihasi ishlab chiqilib, tasdiqqa kiritsin.

5. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish Xalq deputatlari viloyat Kengashining Sanoat, transport, qurilish, kommunal soha va aholiga xizmat ko‘rsatish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi A. Xudayberganov, viloyati hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari M. Fayziyev hamda viloyati hokimining shaharlar infratuzilmasini rivojlantirish, obodonlashtirish va kommunal xo‘jalik masalalari bo‘yicha o‘rinbosari B. Meliyev zimmasiga yuklansin.

Xalq deputatlari viloyat kengashi raisi o'rinbosari **Turdiboyeva R. E.**

Xalq deputatlari Toshkent viloyat Kengashining
2022 yil 18 apreldagi
VI-51-70-10-0-K/22-son qaroriga
1-ilova

“Zangiota obodon” mas’uliyati cheklangan jamiyati qattiq maishiy chiqindilarni to‘plash va olib chiqib ketish xizmatlari uchun amaldagi va taklif etilayotgan narxlari (tariflar)

t/r	Xizmat turi	O‘lchov birligi	Amaldagi narx (tarif) (so‘m)	Amaldagi narx (tarif) (so‘m) (QQS bilan)	Taklif etilayotgan narx (tarif) (so‘m)	Taklif etilayotgan narx (tarif) (so‘m) (QQS bilan)
"Zangiota obodon" MChJ						
1	**Jismoniy shaxslar uchun**	**1 kishi**	2 800,0	2 800,0	3 600,0	3 600,0
2	**Yuridik shaxslar uchun**	**1 m3**	44 500,0	51 175,0	53 922,0	62 010,3
"Zangiota obodon" Chirchiq filiali						
1	**Jismoniy shaxslar uchun**	**1 kishi**	3 900,0	3 900,0	4 400,0	4 400,0
2	**Yuridik shaxslar uchun**	**1 m3**	46 788,3	53 806,5	53 922,0	62 010,3

***